



## O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOSLIKLARI

N.M.Rayimov

“Oila va gender” ilmiy tadqiqot instituti  
2-bosqich doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15799132>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 28-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 30-Iyun 2025 yil

### KEYWORDS

*O'smirlik davri, zo'ravonlik, “Men” obrazi, motivatsiya, oilaviy munosabatlar, o'smirlik davri inqirozi*

### ABSTRACT

*maqolada o'smirlik davriga xos bo'lgan boshqa davrlardan ajralib turuvchi hususiyatlar, shu hususiyatlarning kelib chiqish omillari, o'smirlarda paydo bo'ladigan zo'ravonlikka moyillikning kelib chiqish motivatsiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqola oxirida esa buni oldini olish bo'yicha xulosalar berib o'tilgan..*

O'smirlik davri haqida psixolog olimlar ko'plab izlanishlar olib borishgan. Inson kamolotining bu davrida shaxslararo munosabatlarda shunday o'zgarishlar ro'y beradiki, buni yoritib berish uchun bir qator tadqiqotlar o'tkazilgan.

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud.

Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, tarbiyani insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham goyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtayi-nazarning shakllanmaganligi, xissiyotlilikgi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirotlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

**Maqsad va uni asoslash.** O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida xam “bo'g'ilishlar” seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o'smir bilan o'qituvchining muloqotida, kattalar bilan o'smirlarning muomalasida qat'iy o'zgarishlar vujudga keladi. O'smirda shaxsiy nuqtayi nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga karamay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini hakidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'smirga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, kelib chiqadi.

Ayrim pedagoglar o'smirlik davri inqirozi to'g'risida kuyinib gapiradilar, ba'zi illatlarni tanqid qiladilar va ularning ijtimoiy-psixologik ildizini topishga intiladilar. Aslida esa o'smirlarga yondashishda metodologik kamchilikka yo'l qo'yadilar.

Xo'sh, o'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch nima? O'smirning psixik o'sishini harakatga keltiruvchi kuch uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo'lishidir.

O'smir uchun xarakterli norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik, tajovuzkorlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli sifatida yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xatti-harakatida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini boshqaradi, deb tushuntirilmogda.

Ammo, o'smirlik davrining psixologik qiyofasi, holati, imkoniyati yagona sof biologik omilga bog'liq emasligi hammaga ayondir.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Psixologlarning fikricha, o'smirlik davrning muayyan hech o'zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

O'smirning boshqa yosh davrlaridan farqlanadigan o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular his-tuyg'u va irodaviy sifatlarda o'z ifodasini topadi. O'smir kichik maktab yoshidagi o'quvchidan farqli ravishda hayotni ilk bor shaxs sifatida faol ilmiy bilishda ishtirok eta boshlaydi, birinchi galda faqat narsa va hodisalarning ayrim alomatlarini emas, balki ularning umumiy va obyektiv qonuniyatlarini anglab yetish, tushunish imkoniyatiga ega bo'lib boradi. O'smir shaxsining tarkib topishida axloq, o'ziga xos ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muxim rol o'ynaydi. Natijada favqulodda holatlarga katta yoshdagi odamlarning tutgan o'rni va uslubini baholash ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi.

A.I.Maliovanov o'smirlarni to'rtta guruhga ajratadi: 1) xatti-harakatda o'zlari anglagan ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so'zi bilan ishi mos o'smirlar; 2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o'smirlar. 3) xatti-harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan, shu bilimlarga mos harakat qilmaydigan o'smirlar, 4) o'zlari biladigan axloqiy talablar bilan kundalik xulq-atvorining aloqasini tushunmaydigan o'smirlar<sup>1</sup>.

O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatlarini, harakteri, imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hislat – voyaga yetish yoki kattalik hissini paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega.

Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil jarayonida, xulq-atvorning tashqi shakllarida o'z ifodasini topadi. O'smirlik davri xususiyatlarini tadqiq qilgan D.B.Elkoninning ta'kidlashicha, o'g'il va qizlarning bu yoshda o'rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin o'ladi<sup>2</sup>.

O'smirlarning o'rtoqlik va do'stlik tuyg'ulari o'zaro munosabatlarini V.A.Krutetskiy, N.S.Lukin, I.V.Straxovlar fikricha, ularning nosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, o'rtoqlik va

---

O'qituvchi. 102-b

shkol'nika. Moskva: Pedagogika. 126-b

do'stlikka har bir yuksak tuyg'uni psixologik jihatdan ta'riflab, ularning ishini bayon qiladi, yuksak insoniy tuyg'ularning shakllanish barqarorligi o'g'il bolalar bilan kizlarda birmuncha farklanishini ko'rsatadi. Shunga bog'liq tarzda o'smirning o'z falsafasi, o'z siyosati, baxt - formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o'rganishi esa unga aqliy operatsiyalarni amalga oshirish tushunchalar va formulalar muhabbat formulasi yaratiladi.

O'gil bola otasining kiyimini toshoyna oldida kiyib ko'rsa, baribir yarashmaydi. Ya'ni, tashki ko'rinishidagi kamchiliklar xali qaddu-qomati kelishmaganligi, uning ustiga yuzlari va tanasida paydo bo'ladigan poxush toshmalar uning ruxli salbiy xislarni boshdan kechirishiga olib keladi. Ya'ni, bu yonii «arosat» yoshi ham deb atash mumkin, chunki katta bo'lib katta emas, bola ham emas. Shularning barchasi o'smirlik davridagi psixik tug'yonlarga sabab bo'ladi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeyini tasavvur qilishidan xosil bo'lgan obraz "Men" obrazi deb atalib, uni qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligini mezonlaridan hisoblanadi.

«Men» obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan xisoblanadi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, «Men» obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. O'smir o'zgalarga karab, go'yoki "oykada o'zini ko'rganday" tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'grisidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» obrazi egasining ongiga taaluqli jarayondir. Shaxsning o'zi haqidagi obrazi va o'z-o'zini anglashi yot va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Bu esa ijtimoiylashuv jarayonida yanada o'z takomiliga erishadi. Darxakikat, bir qator mualliflar (I.S.Kon, F. Rays, G.Krayg, L.S. Vigotskiy, L.I. Bojovich va boshqalar) o'smirlik davrida oilaviy muhit va otalarning ma'lumoti, tarbiya usullari farzandlari bilan o'zaro munosabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Ota-ona mehriq muhtoj, o'z fikr va qarashlari hisobga olishmagan, o'z muammolarini mustaqil hal qilish imkoniyatiga biror marta ega bo'lmagan o'smirlarda o'z-o'ziga hurmat, atrofdagi odamlar bazai do'stona munosabat va «Men»-obrazining ijobiy shallanish ehtimoli juda kam<sup>3</sup>.

Juda ko'p mualliflar (I.S.Kok, 1992, L.S. Vigotskiy, D.B.Elkonin, B.Zaxxo, 2001, E.K.Vasileva 1990, F. Rane 2003, G.Krave, 2000 va boshqalar) ta'kidlashlaricha o'smirlik davrining asosiy xususiyatlaridan biri uning uchun ahamiyatli shaxslar va kattalar bilan o'zaro munosabatlarining qaytadan qurilishidir. Kattalar nazoratidan ozod bo'lish va mustaqillikka erishish ehtiyoji ham o'smirlarda naxslararo munosabatlar shakllanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi bir qator tadqiqotlarda isbotlangan.

Zo'ravon xulq-atvor ontogenezi tahlili shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davri shaxslararo zo'ravonliklar yuzaga kelishi nuqtai nazaridan eng ko'p zo'riqish yoshi hisoblanadi. O'smirlardagi zo'ravonliklarga moyillikning yuqori darajasi ko'pincha shaxs rivojlanishida o'smirlar davri xususiyatlari axamiyati bilan belgilanadi.

L.S. Vigotskiy o'smirlik davri xususiyatlarini aniqlash va baholashda rivojlanish inqirozi tushunchasidan kelib chiqadi, bunda u inqirozli davrlar zarurati rivojlanish jarayoni mantiqi

<sup>3</sup> Kon, I.S. (1984). *O'smir psixologiyasi*. Moskva: Znanie.

bilan shakllanadi, shu bois o'smirlik davridagi salbiy simptomatika obyektiv xarakterga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Shu bilan birga L.S. Vigotskiy fikricha, inqirozli davrlar mohiyati faqatgina salbiy holatlarga borib taqalmaydi, bu yosh davrlarida salbiy simptomlar bilan birga juda katta ijobiy ish ham amalga oshiriladi. Biz uchun bu yerda avvalo, inqirozli davrlarining ijobiy salohiyatiga e'tibor muximdir. Bundan tashqari L.S. Vigotskiy ishlari taxlili inqirozli davraar uchun xarakterli bo'lgan simptomatika ko'p holatlarda ichki ijobiy jarayonlarning tashqi namoyon bo'lishdan boshqa narsa emasligi to'grisidagi taxmini ilgari surish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida salbiy simptomlar dinamikasini boshqarish orqali ijobiy shaxslilik tuzilmalarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

R.Benedikt o'smirlik davrining inqirozli kechishini kattalar va bolalar uchun xulq-atvor normalari turli-tuman ekanligida ko'radi. Uning fikricha, o'smirlik davridagi zo'ravonliklar sabablari bolalar xulq-atvor shakllarining rivojlanmaganligidir. Umuman olganda aytish mumkinki, o'smirlardagi zo'ravonlik xulq-atvorini o'rganishga bixevioristik yondashuv doirasida muhim ma'lumotlar yig'ilganki, ularni yetarli deb bo'lmaydi, chunki quyidagi savolga konstruktiv javob yo'q: o'smirlardagi zo'ravonlikka moyillikni nima qilish kerak. A. Freyd o'smirlik davrini "bo'xronlar va galayonlar" davri deb ataydi<sup>4</sup>.

O'smirlik davridagi zo'ravonliklarga moyillikdan qochib bo'lmaydi, chunki psixoanalitiklar fikricha shaxsning yangi jinsiy impulslarni integratsiya qilishga intilishi ichki to'ntarishlar, shaxslilik buzilishlari va ijtimoiy adaptatsiyaning pasayishiga olib keladi. Jinsiy impulslarning ijtimoiy tabular bilan to'qnashuvi salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun o'smir vaziyatni idrok etishni buzuvchi psixologik himoya mexanizmlaridan (bostirish, siqib chiqarish, proyeksiya, aynanlashtirish, ratsionalizatsiya va sublimatsiya) "foydalanadi", bu esa shaxslararo zo'ravonliklar yuzaga kelishidagi omillardan biridir. O'smirlardagi zo'ravonlik xulq-atvori namoyon bo'lish darajasiga jinsiy yetilishdagi, jinsiy motivatsiya kuchi va u bilan bog'liq bezovtalanishdagi individual tafovutlar ta'sir ko'rsatadi<sup>5</sup>.

Bundan tashqari, ta'kidlash joizki, aynan psixoanalitik yo'nalishga o'smirlik davri psixologiyasi muomala genezisi kabi muhim muammoni qo'yganligi uchun qarzdordir. G.S.Salliven fikricha, psixik rivojlanish shaxslararo munosabatlardagi ehtiyojlarning rivojlanishi bilan belgilanuvchi bir qator bosqichlarning bola tomonidan bosib o'tilishini bildiradi.

Shunday qilib, psixoanalitik yo'nalishda o'smirlik davridagi inzoli xulq-atvor shakllari genezisida jinsiy motivatsiya, ximoya mexanizmlari va anxelararo munosabatlarga bo'lgan extiyojlar rivojlanish xususiyatlarining asosiy roliga urg'u beriladi

K.Levin o'smirlik davri fenomenlari talqinida o'zining maydonlar nazariyasidan kelib chiqadi. Bu unga mazkur yosh davrinnig asosiy xususiyati sifatida bolalar jamoasidan kattalar jamoasiga o'tish bilan bog'lik guruhviy mansublikinig o'zgarishi bilan yuzaga keluvchi o'ziga xos "kognitiv disbalans"ni ajratish imkonini berdi. Kattalar jamoasi, K.Levin fikricha, o'smir uchun hayotiy fazonnig notanish sohasi sifatida, kognitiv tuzilmaga ega bo'lmagan soha sifatida namoyon bo'ladi, bunda o'smir aniq, tafovutlovchi sohalarni ajrata olmaydi.

<sup>4</sup> Freud, A. (1958). *Normality and Pathology in Childhood: Assessments of Development*. New York: International Universities Press.81-b

<sup>5</sup> Benedict, R. (1934). *Patterns of Culture*. Boston: Houghton Mifflin.

Shu munosabat bilan u o'smirlardagi nizoli xulq-atvor sabablarini aniqligini yo'qligida deb biladi: o'smir o'zi uchun notanish muhitda bo'lgani sababli to'g'ri ish qilayaptimi yo'qmi bilmaydi. Bu o'ziga ishonchsizlik kattalar olamidani bolani bexabar holda o'stirganlarida kuchayib ketadi.

O'smirda kattalar hayot normalari haqidagi tasavvurlar yo'qligi salbiy oqibatlarini borasidagi so'nggi tezis bizning nuqtai nazarimizda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra biz shuni tasdiqlashimiz mumkinki, o'smirlarga nizolarsiz yashashii ta'minlashga intilish, ularni o'z muxitlarida va "o'smir kattalar" darajasida bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslararo nizolardan chegaralanish psixologiya jihatdan asossiz va pedagogik jihatdan xavflidir. Y.A.Klimov ta'biri bilan aytganda, izosiz pedagogik muhitni belgilab biz o'smirni bo'layotgan vokea xodisalarga nisbatan emotsional va amaliy reaksiyasi turli variantlarini zae kilish, prognozlash, bilni va har tomonlama tushunish, yo'nalishni belgilashdan mahrum qilamiz.

Shu bilan birga K.Levin ham, uning izdoshlari ham (Ayzenberg, Koulmen) o'smirlardagi shaxslararo nizolar asosiy muammolarini shaxslilik va guruh ichi darajasidagi ijobiy o'zgarishlarni ta'minlash muammosini hal qilib bera olmaydilar. Rivojlanishini maydon tuzilmasining murakkablashuvi sifatida belgilab, u sifatii murakkablashuv nimadan iborat ekanligi tushuntirib bermaydi, mavjud bo'lgan tuzilma elementlarining sodda ko'payishi sifatida baholaydi.

O'smir rivojlanishnini intellektual jabhasi J.Piaje va uning izdoshlari tomonidan chuqur ko'rib chiqilgan. J.Piaje fikricha, bu yosh davri shu bilan xarakterlanadiki, o'smirda ob'ektning konkret xossalari suyanmagan xolda formal operatsiyalarga qobiliyat yetiladi, bu esa o'smirlarda nazariyalashtirish, farazlar tuzishga moyillikda namoyon bo'ladi<sup>6</sup>.

J.Piajening o'smirlardagi ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlari Aktivatsiya Windows borasidagi goyalarini rivojlantira borib, L.Kolberg asosiy o'rinii ob aktivirovat' Windows, pereydite axlokiy og genezisiga beradi, uning fikricha axlokiy ong genezisi arnon Tawa komparativna balattishet natijali emas balki

**Yakuniy qism.** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligini asosiy sabablari:

1) fan va texniki rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotgani;

2) ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasini ko'tarilgani;

3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat na jamiyat qonunlaridan yetarli darajada xabardorligi,

4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani,

5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi.

6) oshkoralik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining nastimoiy xayotga chukur kirib borayotganligi,

<sup>6</sup> Inhelder, B., & Piaget, J. (1958). *The Growth of Logical Thinking from Childhood to Adolescence: An Essay on* 14-p

7) o'quvchilar uchun mustakil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini o'zi boshqaril, anglash, baholash va nazorat kilishga keng imkoniyat yaratilganligi bilan izohlanadi.

Zo'rvonlik hissini boshdan kechirayotgan o'smirlarning psixik rivojlanishida emotsional, motivatsion va irodaviy sohalarning izdan chiqishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning emotsional sohasida o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning kechinmalarini tushunish qobiliyatining pastligi kuzatiladi. Ko'pincha bunday o'smirlar salbiy hislarni, xususan, g'azab, alam, nafrat yoki ranjish kabi emotsiyalarni kuchli zo'rvonlik aktlari orqali ifodalaydilar.

Motivatsion sohada esa, konstruktiv, jamiyat tomonidan qabul qilingan maqsadlar o'rniga, o'zini kuch bilan namoyon qilish, boshqalar ustidan ustunlik qilish, nazorat va e'tibor qozonishga qaratilgan ichki ehtiyojlar ustunlik qiladi. Bu holat ularning ijtimoiy moslashuvchanligini pasaytiradi va salbiy yo'nalishga yo'naltiradi.

Irodaviy rivojlanish jihatidan esa, bunday o'smirlar o'z harakatlarini ongli nazorat qilishda, impulslarini jilovlashda va oqibatlarini oldindan ko'ra olishda sezilarli qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa zo'rvonlik harakatlariga tez-tez murojaat qilishlariga olib keladi.

Umuman olganda, zo'rvonlik hissini boshdan kechirayotgan o'smirlar nafaqat tashqi omillarning, balki ichki ziddiyatlar, noto'g'ri shakllangan "Men" obrazi, emotsional beqarorlik va yetarlicha rivojlanmagan ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarning ta'sirida bu turdagi xulq-atvoriga moyil bo'lishadi. Shu bois, ularning emotsional ehtiyojlarini inobatga olgan holda psixoprofilaktika, ijtimoiy yordam va individual yondashuv asosida tuzilgan kompleks korreksion ishlar muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60- son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020 y. O'PQ-637-son "Ta'lim to'g'risidagi"gi Qonuni//Lex. uz online73
3. A.Freud. (1958). Normality and Pathology in Childhood: Assessments of Development. New York: International Universities Press
4. Benedict, R. (1934). Patterns of Culture. Boston: Houghton Mifflin.
5. Elov.Z.S O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri.
6. N.M.Rayimov Oilaviy munosabatlarda zo'rvonlik hissi vujudga kelishi haqidagi psixologik qarashlar // "Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon hayot, ta'lim va barqaror kelajak" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024.
7. G'ulomqodirov E.A. Oilaviy zo'rvonlikka uchragan bolalarning psixologik profili // Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon hayot, ta'lim va barqaror kelajak" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024.
8. Rayimov N.M. Oiladagi tarbiyaning zo'rvonlik hissi vujudga kelishiga ta'siri // International scientific journal "Interpretation and researches" . Volume2 issue 8(30) ISSN: 2181-4163 Impact Factor: 8.2